

**“SADDI ISKANDARIY” DOSTONI MOHIYATI VA UNI NASHR ETISH
QAT’IYATLARI**

**THE ESSENCE OF THE EPISTLE "SADDI ISKANDARIY" AND THE
DETERMINATIONS OF ITS PUBLISHING**

**СУТЬ ПОСЛАНИЯ «САДДИ ИСКАНДАРИЙ» И ПРИЧИНЫ ЕГО
ПУБЛИКАЦИИ**

Sultonmurod Olim

filologiya fanlari doktori, Toshkent amaliy fanlar universiteti professori,

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

e-mail: smo54@mail.ru

Annotatsiya: Ma’ruzada Alisher Navoiy “Xamsa”sining oxirgi dostoni bo‘lmish “Saddi Iskandariy”ning bosh g‘oyasi, nomining asoslanishi, ustuxonbandi (kompozitsiyasi), hajmi, “Xamsa”dagi orni, unda ishq, oshiq va ma’shuq tushunchalari uzviyligi talqini, hikoyatlarning qo‘llanishi, bosh qahramon prototipi kim yoki kimlar ekani, asarning alloma personajlari, uning yangi nashrini amalga oshirishda zarur bo‘lgan qa’iyatlar bayon etiladi, shuningdek, kelajakdagi nashrlar uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlari: Alisher Navoiy, “Xamsa”, “Saddi Iskandariy”, bosh g‘oya, kompozitsiya, hajm, ishq, oshiq, ma’shuq, bosh qahramon, prototip, alloma personajlar, nashr qa’iyatlari.

Аннотация: В докладе изложены главная идея, композиция, объем, главный герой, прототип, персонажи-ученые, принципы издания последней поэмы “Пятерицы” (“Хамсы”) Алишера Навои “Стены Искандера”, слияние понятий любовь, любящий, любимая, использование притч в нем, а также даны рекомендации для будущих изданий данного произведения.

Ключевые слова: Алишер Навои, “Пятерица” (“Xamsa”), “Стена Искандера” (“Saddi Iskandariy”), главная идея, композиция, объем, любовь, любящий, любимая, главный герой, прототип, персонажи-ученый, принципы издания, рекомендации.

Annotation: This report presents the main idea, composition, volume, protagonist, prototype, scholar characters, principles for publishing Alisher Navoi's final poem from the "Quintet" ("Khamasa"), "The Walls of Iskander," the fusion of the concepts of love, lover, and beloved, the use of parables, and also provides recommendations for future editions of this work.

Keywords: Alisher Navoi, "The Quintet" ("Khamasa"), "Iskander's Wall" ("Saddi Iskandariy"), main idea, composition, volume, love, lover, beloved, protagonist, prototype, scientist characters, publishing principles, recommendations.

Asarning bosh g‘oyasi. Birgina “Saddi Iskandariy” dostonini yozib qoldirganida ham, Alisher Navoiy jahonning eng buyuk shoirlari safidan o‘rin olgan bo‘lar edi.

Haq taoloning so‘nggi payg‘ambari – Muhammad (s. a. v.). Unga vahiy orqali yuborilgan islom – bashariyatning eng so‘nggi va mukammal dini.

Musulmonchilikning eng yuksak cho'qqisi – ruhni Allohga yetar darajada yuksaltirishga yo'naltirilgan tasavvuf ta'limoti. Tasavvufning eng so'nggi va mukammal tariqati – naqshbandiya. Navoiy esa adabiyotning islom aqidalari va naqshbandiya g'oyalarini eng kuchli targ'ib va tashviq etgan buyuk vakili. Shoir "Xamsa"sining oxirgi dostoni bo'lmish "Saddi Iskandariy"da ham g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan aynan islom aqidalari va naqshbandiya g'oyalarining oliy darajadagi targ'ib va tashviqini ko'ramiz.

Naqshbandiyaning: *"Dil – ba yor-u, dast – ba kor"*, – degan bosh shiori har qanday kishining so'fiy bo'lib yashash imkonini beradi. *"Shoh va darvesh"* g'oyasi – aynan buning yorqin dalili. Ya'ni bu: *"Har qanday kishi, hatto, shoh ham, boringki, Iskandar kabi jahon hukmdori ham darvesh bo'lishi – mumkin"*, – degan ma'noni anglatadi. Asarda Iskandarning har bir xatti-harakati oqilona, to'g'ri va donolarcha amalga oshiriladi.

Doston nomining asoslanishi. *"Ya'juj"* degan maxluqlardan xalqini himoya qilish uchun Iskandar ular yashaydigan joy bilan o'zining mamlakati o'rtasida maxsus devor qurdiradi. Dostonning *"Saddi Iskandariy"*, ya'ni *"Iskandariy devor"* yoki *"Iskandar devori"* deb atalishi ham – bevosita shu bilan bog'liq. Asarda butun bashariyat tamadduni, ya'ni sivilizatsiyasining XV asr oxirlarigacha erishgan barcha yutuqlari izlarini ko'rish – mumkin. Ana shu devorning qalamga olinishiga amalda yovuz dushmanlardan himoyalalanish uchun qurilgan Buyuk Xitoy devorining badiiy adabiyotdagi aksi sifatida qarash – lozim.

Ammo dunyoviy tarafdin qaragandagina – shunday. Tasavvufiy jihatdan kelib chiqilsa, shoir *"devor"* deganda ramzan tasavvufiy ma'no-mazmunni ham ko'zda tutgan. U – keng ma'noda jon ramzi. Jonni esa nafs boshqaradi. So'fiy ruhini Allohga yetar darajada yuksaltirishi uchun, avvalo, nafsini yengishi, ya'ni jilovlashi – zarur. Iskandar qurdirgan devor ramzan ruhning nafs lashkariga qarshi qo'yilgan to'sig'ini anglatadi.

Buning bir isbotini keltiraylik. *"Lison ut-tayr"*da Hudhud qushlarga ishqni shunday ta'riflaydiki, oshiq uchun jon – maqsad, ya'ni yorga yetish yo'lini to'sadigan eng katta devor. Endi u tanu jonidan ham, aqlu hushidan, hattoki, iymoniyu millatu dinidan ham kechishi, fard, ya'ni yolg'iz bo'lishi – shart. Kimki oshiqqa aylansa, uning jondan hech g'ami – yo'q. Iymonini berib, o'rniga kufr olsa ham – unga baribir. Oshiq toki tanu joni, aqlu hushi, dinu iymonidan qutulmas ekan, u chin oshiq hisoblanmaydi:

*Kimki oshiqdur – anga jondin ne bok,
Kufr olib bermak iymondin ne bok?*

*Gar kerak oshiqqa o'z jononidin,
Sahl erur kechmak jahonu jonidin.*

*Jon erur oshiq yo'lida saddi roh,
Uylakim, bo'lg'ay birav yo'linda choh.*

Fard erur oshiq tanu jondin dog'i,

Aqlu hushu kufri iymondin dog'i¹.

Asar ustaxonbandi (kompozitsiyasi). Doston 88 bobdan tashkil topgan. Shartli ravishda, boblarni kompozitsion jihatdan 3 qismga bo'lish – mumkin:

- 1) kirish (1 – 14-boblar);
- 2) asosiy qism (15 – 86-boblar);
- 3) xulosa (87 – 88-boblar).

Kirish 2 hamd (tavhid, munojot), 2 na't (vasf, me'rojnoma), "Xamsa"ni takomilga yetkazish, so'z ta'rifida, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy madhi, dostonni yozishda Jomiyning rahnamo bo'lgani, Sulton Badiuzzamon madhi, qadimiy Ajamning peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar sulolalari tarixini qamrab oladi. Asosiy qismdagi jami 72 bob har biri 4 tadan bobni o'z ichiga olgan 18 blok, ya'ni boblar bog'lanmasidan iborat. Bu boblar bog'lanmasi haqida keyinroq batafsilroq muhokama yuritamiz. Xulosa qismidagi 1 (87-) bob o'z ukasi Darveshaliga nasihat, yana 1 (88-) bob esa nafaqat shu doston, balki, umuman, "Xamsa"ning yakunlovchi qismi sifatida bitilgan.

Asarning hajmi. "Saddi Iskandariy" Navoiyning 6 dostoni orasida eng yirigi hisoblanadi. U – 7 ming 215 baytdan iborat².

Dostonning "Xamsa"dagi o'rni. Ba'zilar Navoiy "Xamsa"sini, Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sigajavob, deb hisoblaydi. Bu – juda umumiy tasavvur mahsulidan boshqa narsa emas. Yuzaki qaraganda – shunday, albatta. Chunki "xamsa"chilikni Nizomiy boshlab bergan. Ya'ni Navoiy ham xuddi Nizomiy "Xamsa"sidagi tartib asosida besh doston bitdi. Bu asarlar tabiati, syujet chizig'i ham – o'sha-o'sha. Biroq, aslida, Navoiy faqat "Hayrat ul-abror"nigina Nizomiy "Maxzan ul-asror"iga javob tarzida yozdi, xolos. "Farhod va Shirin" – Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav"iga, "Layli va Majnun" – Xoju Kirmoniyning "Gavharnoma"sigajavob, "Sab'ayi sayyor" – Ashraf Marag'oiyning "Haft paykar"iga, "Saddi Iskandariy" – Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" dostoniga nazira, javobiya, tatabbu. Buni Navoiyning o'zi aytgan³.

"Hayrat ul-abror" – timsoliy qilib aytganda, "Xamsa"ning "Kirish"i. U – dasturiy, ya'ni yo'llanmaviy xususiyatga ega. Unda "Xamsa"da ko'tarilishi ko'zda tutilayotgan masalalarning asosiy-asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun"ni tezis sifatida qabul qilishga to'g'ri keladi. Chunki tasavvufda Allohga ishqning "sahv"⁴, ya'ni hushyorlik yo'li ham, "sukr", ya'ni mastlik, sarxushlik yo'li ham – mavjud. Ularda, *tasavvufda sahvyo'li bilan ham, sukr yo'li bilan ham asl maqsadga, ya'ni yor vasliga yetish – mumkin*, degan g'oya ilgari surilib, bu hayotiy voqealar tasvirini dalil qilib keltirish orqali isbotlangan. "Sab'ayi sayyor" esa antitezis vazifasini o'taydi. Ya'ni unda: *"Agar sahvyo'li bilan ham, sukr*

¹Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 12. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 66-67.

²"Farhod va Shirin" – 5 ming 782, "Sab'ayi sayyor" – 5 ming 8, "Hayrat ul-abror" – 3 ming 988, "Layli va Majnun" – 3 ming 622, "Lison ut-tayr" – 3 ming 598 bayt.

³Qarang: Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 16. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 26.

⁴Фарҳанги забони тоҷикӣ. Аз асри X то ибтидои асри XX. Иборат аз ду ҷилд. Ҷ. 2. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – С. 225. Bu arabcha so'z "صحرو" tarzida yoziladi, u "xato" ma'nosidagi boshida "sin" ("س") va o'rtada "heyi havvaz" ("و") harfi ishtirok etadigan "سيو" kalimasidan tamoman farq qiladi.

yo'li bilan yurilmasa, nima bo'ladi? – degan savol o'rta tashlanib, hayotiy isboti bilan javob beriladiki, bunda asl maqsad amalga oshmaydi. Tabiiyki, “Saddi Iskandariy” sintez o'rnida keladi. Atoqli adabiyotshunos I. Haqqul o'zbek mumtoz adabiyotidagi ruboiylar kompozitsiyasida 1- va 2-satrlar – tezis, 3-satr – antitezis va 4-satr – sintezdan iborat bo'lishini yaxshi ko'rsatgan⁵ va biz yuqoridagi xulosani ilgari surishda ana shu tayyor formulirovkaga suyardik.

Dostonda ishq, oshiq va ma'shuq tushunchalari uzviyligi talqini. Tasavvufda “*ishq*”, “*oshiq*” va “*ma'shuq*” tushunchalari vobastaligi – bor. Kamina 1992 yili “Lison ut-tayr”ning yangicha tahliliga bag'ishlab yozilgan risolasini “*Ishq, oshiq va ma'shuq*”⁶ deb nomlagani sho'ro davrida shakllangan ko'p navoiyshunoslarning talay e'tirozlariga sabab bo'lgan ham edi. Holbuki, mana, “Saddi Iskandariy”ning 1-bobi quyidagi baytlar bilan tugaydi:

*Zihi turfa ma'shuqi oshiqnavoz, –
Ki qilmoqqa o'z husnini jilvasoz.*

*...Kishi ko'rmamish hargiz andoq kishi,
Ki oshiqqa oshiqlik o'lg'ay ishi.*

*Yaqin anglasam, g'ayr bordur adam,
O'zung oshiqu ishuq ma'shuq ham.*

*Chu ma'shuqu oshiq sen o'ldung tamom,
Sanga ishuq ushshoqdin, vassalom (1-bobdan).*

Bu misollarda Xudoning o'zi “*ishq*”, “*oshiq*” va “*ma'shuq*” ekani ayonlashadi. Chunki ishqning manbasi – Alloh taolo. Demak, u – ma'shuq. Oshiq (banda) ma'shuqni sevadi. Uning ishq komillikka yetsa, ma'shuq ham oshig'ini sevadi. Sevdimi, endi o'zi ham oshiqqa aylanadi. Vasl yuz berib, oshiq bilan ma'shuq qovushadi. So'fiyning ruhi Allohga yetadi. Endi ularni: “*Bu oshiq edi, bunisi ma'shuq edi*”, – deb ajratishning hech imkoni qolmaydi. Bu baytlarda aynan shu haqda so'z boryapti.

Oradan 33 yil o'tdi. Bugun navoiyshunoslikda “*Ishq, oshiq va ma'shuq*” risolasidagi tasavvufiy talqin va tahlillarga hech kim qarshi emas. Demak, bir yangilikning qabul bo'lishi uchun muayyan davr o'tishi kerak ekan.

“Saddi Iskandariy” – hikoyatli doston. Navoiyning mavjud 6 dostonini quyidagicha tasnif qilish – mumkin:

1) hikoyatlar qo'llangan dostonlar: “Hayrat ul-abror”, “Sab'ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr”;

2) hikoyatlar ishtirok etmagan dostonlar: “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”.

⁵Qarang: *Хаккулов И. Ч.* Рубаи в узбекской классической литературе (Поэтика и история жанра). – Автореф. дисс. ... к. филол. н. – Ташкент: Без издательства, 1975. – С. 11.

⁶Qarang: *Олим С.* Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: Фан, 1992.

Hikoyatlar keltirilgan dostonlarda shoir, timsoliy qilib aytganda, tarozining ikki pallasini barobar ushlab yo'ldan boradi, ya'ni simmetriya qoidasiga qat'iy amal qiladi. Ya'ni bunday dostonlarning har bir bobida hikoyatning o'rnini qat'iy bo'ladi. "Saddi Iskandariy"da ham shunday yo'l tutilgan.

Bosh qahramon prototipi – kim yoki kimlar? Iskandar timsolining prototipi – Iskandar Maqduniy, ya'ni Aleksandr Makedonskiy, albatta. U – qilich bilan dunyoning qariyb yarmini egallagan buyukdan-buyuk jahongir. Biroq Navoiyning Iskandari – so'fiy ham. So'fiyligi – dostonida shunday jahongirning biror kishi qonini to'kkani aslo ko'rsatilmaydi.

Tabiiyki, Iskandar Navoiy zamonasidan 18 asr ilgari yashab o'tgan edi. Uning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar ham u qadar aniq-tiniq emas edi. Bo'lajak shoir esa buyuk Sohibqiron Amir Temur vafotidan bor-yo'g'i uch muchal, ya'ni 36 yilgina keyin tug'ilgan. Dostonni o'qir ekansiz, Iskandar bilan bog'liq talqinlar zahirida xuddi Sohibqiron Amir Temur bordek tasavvur paydo bo'laveradi. U ham, xuddi Iskandar kabi, buyukdan-buyuk jahongir edi. Shuning uchun Amir Temurni doston bosh qahramoni ikkinchi prototipi hisoblashga to'la asoslarimiz – bor. Bu yerda birgina misol keltiramiz. Asarda Iskandar va Doro lashkarlari urushi xuddi 1402 yilning 20 iyulida Amir Temur va Boyazid Yildirim lashkarlari o'rtasida kechgan Anqara jangidagi kabi tasvirlanadi. Dostonida Doroni o'z lashkaridan bo'lgan ikki muxolifi halok etadi. Tarixning guvoh berishicha, Boyazid Yildirim lashkarining bir qismi ham Amir Temur tomoniga o'tgan.

Dostonida shoir Iskandarni bevosita Sulton Husayn bilan qiyoslashga tushadi. Zamon hukmdorini Iskandardan ham ko'ra ulug'roq maqomlarda madh etadi ham:

*Jahongirlik amrida Mohu sol,
Emas erdi shahg'a majoli visol (55-bobdan).*

Dostonidagi Iskandar haqida aytilgan hamma gaplar, aslida, temuriylarga nasihat tariqasida bitilgan. Bu ochiq anglashilib turadi. Shu asoslarga suyanib, ayta olamizki, Sulton Husayn Iskandar timsolining uchinchi prototipi bo'lib xizmat qilgan ham.

Asarning alloma personajlari. Dostonida antik davrning Naqumohis, Arastu, Filotun (Aflotun), Suqrot, Asqalinus, Buqrot, Hurmus, Faysog'urs kabi allomalari timsollari ishtirok etgan. Ularning ko'plari juda qadim zamonlardan Yaqin va O'rta Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan.

Shoir ularni go'yoki antik dunyodan "yulib olib", o'z zamoniga olib kirgan. Bundan maqsad esa ayni vosita orqali o'z davri ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-falsafiy qarashlarini ilgari surish edi. Shu tariqa olimlarni el-yurt uchun foydali ishlar bilan shug'ullanishga undagan bo'ladi. Bundan tashqari, hukmdorlarning ilm-fan ahllariga homiylik qilishga, davlatni donishmandlarning oqilona maslahatlariga quloq tutgan holda idora etishga chorlaydi.

Doston va kino. Ustozimiz, o'zbek tarjimashunosligining otasi, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor G'aybullay Salomov Navoiy asarlarini ruschaga tarjimai yuzasidan amaliy dars o'tar ekanlar, "Hayrat ul-abror"dagi ifoda va

tasvirlardan chunon zavqlanib, bir gal: *“Qani bir rassom bo‘lsa-yu, Navoiyning shu tasvirlari manzarasini chizib ko‘rsatsa!”* – degan edilar. Kamina *“Saddi Iskandariy”* dagi tasvirlarni o‘qib: *“Qani bir yaxshi rejissyor bo‘lsa-yu, shu tasvirlarni kino qilib ko‘rsatsa!”* – degim keladi.

Dostonning yangi nashrida amal qilingan qoida va qat’iyatlar. Filologiya fanlari doktori Porso Shamsiyev o‘tgan asr 60-yillarida *“Saddi Iskandariy”* dostoni ilmiy-tanqidiy matnini tuzgan. Ammo u nashr qilinmagan, qo‘lyozma holida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi arxivida saqlanadi. *“Xamsa”* ning 1958⁷ va 1960⁸ yilgi nashrlarini ham shu olim tayyorlagan edi. Keyinchalik manbashunos-adabiyotshunos Mavjuda Hamidova dostonning mukammal ilmiy-tanqidiy matnini tuzib chiqdi⁹. Navoiy *“Mukammal asarlar to‘plami”* (MAT) da dostonni Mavjuda Hamidova va filologiya fanlari nomzodi Toshpo‘lat Ahmedovlar birgalikda tayyorlashgan¹⁰. Undagi sharh va izohlarni T. Ahmedov tuzgan¹¹.

Dostonning qo‘lingizdagi nusxasi matnini tayyorlashda, asosan, shu nashrga tayandik. Undagi sharh va izohlardan ham imkon darajasida foydalandik. Axir, ular yillar mobaynida meros bo‘lib yig‘ilib kelgan ilm mahsuli hisoblanadi. Nega ulardan foydalanmaslik – kerak? Nima uchun kitobxon bu boy ma’lumotlardan bahra olmasin? Ko‘plab yangi sharh va izohlar havola etildi, albatta. Eskirgan, keraksiz, deb hisoblanganlari olib tashlandi ham.

Bu nashrda Navoiy she’riy asarlarini chop etishning tamoman yangi, ko‘p yillik mutolaa natijasida yig‘ilgan tajribalardan kelib chiqib tanlangan yo‘llaridan yurildi. Aniqrog‘i, Navoiy asarlarini zamonaviy yozuvda nashr etishning qariyb bir asrlik tarixi – bor. Shu davrlar mobaynida bu borada juda katta tajriba ham to‘plandi. Xuddi shuningdek, katta-katta va jiddiy xato va kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yildi.

Binobarin, *“Saddi Iskandariy”* ning *“MAT”* tarkibidagi nashrida ko‘p-ko‘p xato, chalkashlik, mexanik anglashilmovchilik va vaznga mos kelmaslik kabi hollar kuzatiladi. Shu tariqa manbashunoslikka amaliy jihatdan juda ko‘p yangi qoidalar kiritildi. Ba’zi mutaxassislar bu yangiliklarni dab-durustdan qabul qilolmasligi, hatto, bahslashishi ham – mumkindir, albatta. Bu – tabiiy. Chunki jamiyatda hech bir yangilik osonlikcha, birdaniga qabul qilinmaydi. Tabiatan odamzod, xato bo‘lsa ham, o‘rganib qolgan narsasini *“to‘g‘ri”* deb bilaveradi. Lekin hech bir yangilik beasos, shunchaki shaxsiy istak yo iddao orqali amalga oshirilmasligi – lozim. Biz shu qoidaga amal qildik. *Ilman shu – eng to‘g‘ri, yaxshi, ma’qul yo‘l*, deb hisoblandi. *Yillar o‘tib, manbashunosligimiz, albatta, biz tanlagan shu yo‘lga keladi*, deb umid ham qilindi.

Amalga oshirilgan ana shu yangiliklarning ba’zilariga izoh berib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

⁷Алишер Навоий. Хамса. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси, 1958.

⁸Алишер Навоий. Хамса. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси, 1960.

⁹Алишер Навоий. Садди Искандарий. Илмий-танкидий матн. Тузувчи: филология фанлари номзоди Мавжуда Шокир қизи Ҳамидова. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси Ҳамид Сулаймон номидаги Қўлғезмалар институти, 1993 (doston matni arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek alifbosida tayyorlangan).

¹⁰Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 11. – Тошкент: Фан, 1993.

¹¹Bu haqda qarang: O‘sha nashr. – B. 585.

1. Dostonning oldingi barcha nashrida bir katta e'tiborsizlik yuz bergan. Ya'ni matnlarda tinish belgilarini qo'llashga yetarli diqqat qilinmagan. Nuqta, ikki nuqta, vergul, chiziqcha, tire, undov va so'roq belgilariga e'tibor juda sust bo'lgan. Biz matnda tinish belgilarining hammasini qoida asosida o'z o'rnida qo'lladik. Masalan, ushbu baytdagi kabi:

*Hamal chun aningdek topib mehribon,
"Kerakmas", – debon Muso yanglig' shubon (4-bobdan).*

2. Oldingi nashrlarda "ki" so'zi aksariyat hollarda ko'chirma gapning ichiga olingan, holbuki, ko'chirma gap undan keyin kelishi – zarur. Biz mana bu tarzda ayni xatolarni ham tuzatdik:

*Hamul xayli vahshiy qilib iltimos,
Dedilar, ki: "Ey shohi gardunasos!.." (68-bobdan).*

Yoki:

*Skandar to'kub ashku tortib nafir,
Dedi k-: "Ey shahanshohi gardunsarir!.." (27-bobdan).*

O'zbek tili tabiatiga bir so'zda ikki unlining yonma-yon kelishi – yot. Ya'ni lisonimizda birorta ham bunday asl turkiy so'z uchramaydi. So'zga qo'shimcha qo'shayotganda shunday vaziyat yuz bersa, bir undosh qo'shamiz. Masalan, "ona"ga "-i" egalik qo'shimchasi qo'shilsa, "onai" bo'lmaydi, "onasi" deymiz. Shuning uchun boshqa, asosan, arabiy va forsiy tillardan o'tgan so'zlardagi bunday holatlarda ikki unli orasiga bir undosh qo'shib talaffuz qilinadi. Masalan, "qoil", "moil" so'zlari bizga "qoyil", "moyil" bo'lib o'tgan. Hatto, "doim", "doir" deb yozsak ham, amalda "doyim", "doyir" deb aytamiz. Shunday o'rinlarda biz undosh qo'shib yozishni ma'qul ko'rdik. Bu vaznga mos tarzda o'qishni ham osonlashtiradi. Masalan, "g'unchavu", "ifshoyi", "joyiz" kabi.

3. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari nashri bilan bog'liq yana bir muammo – bor. Tilimizda arabchadan kirgan "in'om" ma'nosidagi "ato" so'zi ham – mavjud, o'zimizning "ota" ma'nosidagi "ato" so'zimiz ham. Lekin arabchadan kirgan so'z "ayn" va "to" harflari bilan (ع), o'zimizning "ato" esa "alif" va "te" harflari bilan (ا) yoziladi uchun arab yozuvi asosidagi matnda o'quvchi ularning ma'nosini ajratib olishga qiynalmaydi. Arabchadan kirgan "g'am", "mashaqqat" ma'nosidagi "ano" (ع) va "ona" ma'nosidagi o'zimizning "ano" (ا) ham – xuddi shunday. Kirill yoki lotin yozuvida bular bir xil bo'lib ketadi. Xo'sh, qanday qilamiz? "Xamsa"ning 1960 yilgi nashrida bunday so'zlar qavs ichida arab harflari orqali ifodalangan ham. Bu kabi o'rinlarda biz ham aynan shu yo'lni tanladik.

4. Fors-tojik tilidagi "madadgor" so'zi bizda, negadir, "madadkor" bo'lib ketgan. Hatto, "Saddi Iskandariy" dostoni nashrlarida ham shu xatoga yo'l qo'yilgan. Bunda tilimizda forsha-tojikcha "-kor" qo'shimchasi bilan so'zlar yasalishi

(“*paxtakor*”, “*sholikor*”, “*tadbirkor*” kabi) chalgʻitgan koʻrinadi. Holbuki, bu soʻz ham, “*talab+gor*”, “*yod+gor*”, “*shud+gor*” soʻzlaridagi kabi, “*-gor*” qoʻshimchasi bilan yasaladi. Bu xato ham tuzatildi.

5. Aruz vaznining qatʼiy talabi – shuki, har qanday nazmiy asarning barcha satrlari tanlangan bahrga aynan mos kelishi, birorta ham saktalikka yoʻl qoʻyilmasligi – kerak va shart. Shuning uchun mumtoz shoirlarimiz, vazn taqozosiga koʻra, baʼzan joʻnalish kelishigining oʻzbek adabiy tilidagi “*-ga*” qoʻshimchasi oʻrniga turkiy lisonlarning oʻgʻuz guruhchasidagi “*-a*”ni ishlatib ketaveradi. Shunda vazn raso boʻladi. Bunday hollarda, masalan, soʻzni “*jo+ning+ga*” deb emas, “*jo+ni+nga*” deb oʻqishimiz – zarur va zamonaviy alifboda uni shunday yozishga majburmiz. Oldingi nashrlarda bunday oʻrinlarda ham “*-ga*” yozilib, qoʻpol xatoga yoʻl qoʻyilgan. Biz bu xatolarning barini quyida keltirilgan satrlardagi kabi tuzatdik:

*Qoʻyub jahl, oʻz **joninga** rahm qil* (23-bobdan).

*Solib sunbuli **zulfunga** toblar* (40-bobdan).

*Chu berdi iki **laʼlinga** noʻshxand* (40-bobdan).

***Zanaxdoninga** yetkurub rangu boʻ* (40-bobdan).

Gap – shundaki, ajratib koʻrsatilgan bu soʻzlar, vazn taqozosiga koʻra, “*jo-ni-nga*”, “*zul-fu-nga*”, “*laʼ-li-nga*”, “*za-nax-do-ni-nga*” tarzida hijolarga ajratib, oʻqiladi. Agar ularni, oldingi nashrlarda berilganidek, “*jo-ning-ga*”, “*zul-fung-ga*”, “*laʼ-ling-ga*”, “*za-nax-do-ning-ga*” shaklida yozsak va oʻqisak, “*-ning-*”, “*-fung*”, “*-ling-*”, “*-ning-*” boʻgʻinlari choʻziq hijo boʻlib qoladi. Holbuki, ular asarda qisqa hijo oʻrnida kelgan.

6. Oldingi nashrlarda baʼzan satr hech vaznga tushmaydi. Shunda mutaxassis arab yozuvi asosida tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matnga murojaat qilishga majbur boʻladi. Masalan:

Biravkim, anga nafas qudsiysifot (7-bobdan) , –

satrida vazn buzilgan. Ilmiy-tanqidiy matnga qiyosan oʻrgansak, “*nafs*”¹² (“*نفس*”) soʻzi xato tarzda “*nafas*” tarzida oʻqilgani maʼlum boʻkdi. Biz bu xatoni tuzatdik:

*Biravkim, anga **nafs** qudsiysifot.*

Shu va boshqa shu kabi holatlardagi xatolarni oʻnglash orqali qoʻlingizdagi nashrda mutaqoribi musammani mahzuf (yoki maqsur) vazniga, yaʼni “*fau(v)lun*

¹²Алишер Навоий. Садди Искандарий. Илмий-танқидий матн. Тузувчи: филология фанлари номзоди Мавжуда Шокир қизи Ҳамидова. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси Ҳамид Сулаймон номидаги Қўлғезмалар институти, 1993 (doston matni arab yozuvi asosidagi eski oʻzbek alifbosida tayyorlangan). – B. 76.

fau(v)lun fau(v)lun faul (yoki *faol*)”ga yoxud “*V – – / V – – / V – – / V – (~)*” taqte’siga tushmaydigan birorta ham misra qoldirmadik. Holbuki, Navoiy xato qilmagan, faqat uning satrlarini zamonaviy alifbo asosida transkripsiya qilishda adashilgan edi.

7. Navoiy liro-epik asarlarida gap tuzilishi – jiddiy masalalardan. Aksar oldingi nashrlarda bir baytni bir jumla tarzida ko‘rishdek qo‘pol xato – mavjud. Yo‘q, bunda ko‘p adashamiz. Axir, Navoiyning har bayti bir jumla bo‘lavermaydi-ku. Oqibatda o‘quvchi asl mazmunni tushunib olishga qiynalib ketadi. Masalan, mana bu to‘rt bayt amalda bir jumlaning tashkil etadi va oxiridagina nuqta qo‘ya olamiz:

*Chu zebo tilism o‘lg‘ach orosta,
Hamul nav‘kim, Mohi nokosta,*

*Bo‘lub jam‘ ul hikmatoyin guruh,
Falakdin fuzun har biriga shukuh,*

*Qo‘yub shohi Dorofar o‘llig‘a yuz,
Ne Dorofar, Iskandar o‘llig‘a yuz,*

*Tilismi nihonni ayon qildilar,
Nihon barcha ramzin bayon qildilar* (35-bobdan).

8. Navoiy asarlarida bugungi tilimizda mavjud ko‘p-ko‘p so‘zlar uchrashi – tabiiy. Lekin endi aksar hollarda ularning bugungi imlosi shaklini unutishimiz, so‘zni o‘sha XV asr o‘zbek tiliga moslab yozishimiz – kerak. Masalan, bugun “*andisha*” deb yozamiz. Lekin u “*pesha*” so‘ziga qofiya bo‘lib kelgan bo‘lsa-chi? Quyidagi misolda xuddi shu holatni ko‘ramiz va bu so‘zni “*andesha*” deb yozishga majburmiz:

*Xusho ulki, juz bazl anga pesha yo‘q,
Jahon boru yo‘qidin andesha yo‘q* (53-bobdan).

So‘zlarda “*i*” va “*e*” tovushlari kelgan boshqa ko‘p so‘zlarda ham shunday yo‘l tutdik. Masalan, mana bu baytda ham shu yo‘l qo‘llandi:

*Jamolingni tovusi zeb ayladi,
Karashmangni obidfireb ayladi* (40-bobdan).

9. Ko‘p o‘rinlarda so‘roq gap so‘ngida ham nuqta qo‘yib ketilavergan. Biz bu xatolarni ham tuzatdik. Masalan, mana baytlar mazmuni so‘roq gap ekanidan dalolat beradi:

*Yo‘q ersa yurumak ne imkon yana,
Aso shaklidan qo‘lda chavgon yana?*

...Birav bo‘lsa bu nav‘ranjozmoy,

Anga solim o'lg'aymu tadbiru roy?

*Tavono ekan chog'da aylab gunoh,
Ne sud aylagan vaqt umrin taboh? (40-bobdan).*

Shunga o'xshash yana bir muammoga duch kelindi. Dostonda 18 ta *"Hikmat"* – bor. Iskandar 14 tasida Arastudan, keyin Suqrot (15-hikmat), so'ng esa Luqmoni hakim(16-hikmat)dan savol so'raydi (17 – 18-hikmatlar savol-javob emas, mulohaza-tahlil tarzida bitilgan). Ammo ana shu 16 hikmat nasriy sarlavhasida savol matnini Navoiy aniq ifodalagan, lekin oldingi nashrlarda ular, imlo qoidalariga mutlaqo zid ravishda, qo'shtirnoqqa olinmagan va gap oxirida so'roq belgisi ham qo'yilmagan. Biz ularni quyidagi misoldagi kabi qoida bilan yozdik: *"Iskandarning savoli Arastudin ul bobdakim: "Har amal g'akim, bir jazodur, ul amal tuxmig'a bu bir nedin sazodur?" va javob mahsulini ko'tarmak"* (46-bobdan).

10. *"A"* va *"o"* tovushlari ifodasida oldingi nashrlarda ko'proq hozirgi o'zbek adabiy tili qoidalaridan kelib chiqib ish tutilgan. Bu – xato. Vazn ham buziladi. To'g'ri, kelib chiqishi turkiy bo'lgan so'zlarda *"o"* ishtirokidagi bo'g'inni ham ba'zan qisqa hiyo hisoblash – mumkin. Ammo *"yomon"* so'zini Navoiy hamma vaqt *"yamon"* (يمان) tarzida, ya'ni birinchi bo'g'inda *"alif"* siz yozganmi, demak, uni nashrlarda *"yomon"* deb ifodalashga hech kimning haqqi – yo'q. Masalan, mana bu baytda hech qachon *"yamon"*ni *"yomon"* deb o'qib yoki yozib bo'lmaydi:

*Yamonlardin ofoqni pok etib
Vale yaxshilarni tarabnok etib (43-bobdan).*

Navoiy asarlarini zamonaviy alifboda nashr etishda *"a"* va *"o"* tovushlarini ifodalashda yana bir injiq muammoga duch kelinadi. Vazn taqozosiga ko'ra, ba'zan bir bayt, hatto, misrada aynan bir so'zni ikki xil, ya'ni birini *"a"* va ikkinchisini *"o"* bilan yozishga to'g'ri keladi. Shunday yo'l tutdik. Masalan, mana bu baytning 1-misrasida *"aning"* va 2-misrasida *"oning"* deb yozdik:

*Cherik onchadurkim, aning soni – yo'q,
Yaroq onchakim, oning imkoni – yo'q (47-bobdan).*

11. Hozirgi imlomizda *"Quyosh"* va *"Oy"* so'zlarini kichik harf bilan yozish rasm bo'lgan. Holbuki, *"Mirrix"*, *"Zuhra"* kabi sayyoralarni atoqli ot sifatida katta harf bilan yozamiz. Biz, hamma joyda *"Quyosh"* va *"Oy"*ni, ularning ma'nodosh(sinonim)larini ham katta harf bilan berish – lozim, deb hisobladik. Quyidagi baytda *"Mehr"* so'zi *"Quyosh"* ma'nosida kelgan:

*Dedilar, ki: "To doyr o'lg'ay sipehr,
Sipehr uzra to aylag'ay sayr Mehr (43-bobdan).*

12. Dostonda Navoiy asarlarida “*hind*” soʻzi baʼzan millat, yaʼni xalq, boshqa joyda esa mamlakatni ifodalab keladi. Biz shuni inobatga olib, mamlakat maʼnosida kelsa, quyidagi baytdagidek, katta harf bilan yozdik:

*Seni buyla bilsa edi Royi Hind,
Kelib, qilmagʻay erdi parvoyi Hind* (43-bobdan).

13. Navoiy davrida “*suv*” soʻzi “*su*” tarzida ishlatilgan. “*Suvi*” deyish kerak boʻlsa, “*suyi*” deyilgan. Ammo biz kitobxonlarga yordam boʻlishini istab, aksar hollarda “*su*”ni “*su(v)*” tarzida keltirdik. Lekin baʼzan “*su*” soʻzi qisqa hijo boʻlib keladi. Bunday oʻrinlarda uni aslidagidek, yaʼni “*su*” tarzida qoldirdik. Chunki, qavsda boʻlsa ham, “*v*”ni qoʻshsak, u choʻziq hijoga aylanib, vaznga tushmaydi. Mana, bir misol:

*Agar topmasa ul su birla gazand,
Nega raxt Yerdin koʻtardi baland?* (57-bobdan).

14. Dostonda, vazn taqozosiga koʻra, bir soʻz goh “*iki*”, goh “*ikki*” shaklida qoʻllangan. Ammo “*MAT*” nashrida faqat “*iki*” deb berilganki, biz bu xatoni ham tuzatdik. “*Yeti*” va “*yetti*” masalasida ham shunday yoʻl tutildi.

15. Navoiy tilida “*uyla*” va “*buyla*” soʻzlari – mavjud. Shu paytgacha nashrlarda bu soʻzlar “*oʻyla*” va “*boʻyla*” tarzida transkripsiya qilib kelingan. Biz bu xatoni ham bartaraf etdik. Chunki “*u ila*”dan “*uyla*”, “*bu ila*”dan “*buyla*” shakllangan. Bu xuddi oʻzbek tilining qipchoq lahjasidagi “*u etib*”dan “*uytib*”, “*bu etib*”dan “*buytib*” hosil boʻlganiga aynan oʻxshaydi.

16. Doston “*MAT*”dagi nashrida 9-boblar bogʻlanmasining dastlabki bobi xato tarzda ikkiga boʻlib tashlangan. Yaʼni bu bob sarlavhasining “*Qamarsayyoh*” soʻzidan keyingi qismi ajratilgan va sheʼriy matnning:

*Chiqib markab ustiga xoqoni Chin,
Ani qildi bu roz ishiga amin, –*

baytidan keyingi qismi olinib, alohida bob tarzida berilgan. Bunda shoir asarda qatʼiy amal qilgan simmetriya qoidasi buzilgani ushbu satrlar muallifi tomonidan ilman isbotlandi¹³. Shuning uchun bu jiddiy xato ham tuzatildi.

17. Dostonning asosiy qismi 18 ta blokdan iborat. “*Blok*” soʻzi Navoiy davri uchun erish tuyulishini inobatga olib, uni biz, shartli ravishda, “*boblar bogʻlanmasi*” deb atadik. Har bir boblar bogʻlanmasi 4 tadan bobni oʻz ichiga oladi. Ular quyidagicha tartibga boʻysundirilgan: 1) Iskandarning hayoti bilan bogʻliq voqea tasviri; 2) biror falsafiy masala tahliliga bagʻishlangan mushohada-mulohaza; 3) biror voqea asosidagi hikoyat; 4) “*Hikmat*” sarlavhasi ostida biror masala yuzasidan savol-javob yoki muhokama. Ana shu oʻziga xoslik kitobxonga boricha aniq namoyon boʻlib turishini

¹³Qarang: О л и м С. “Лисон ут-тайр”да композицион қатъият, симметрия ва айрим номутаносибликлар. // Алишер Навоий халқаро журнали. Т. 2. № 3 (2022). – Б. 17 – 20.

o'ylab, har blok boshida qavs ichida boblar bog'lanmasi raqamini "1-boblar bog'lanmasi", "2-boblar bog'lanmasi" va hokazo tarzda anglatib bordik.

18. "MAT" nashrida doston boblari Rim raqami bilan berilgan. Birinchidan, bugun o'quvchilar Rim raqamlarini yaxshi bilmaydi. Bilsa, 10 gacha bo'lganini biladi, xolos. Ikkinchidan, Rim raqamlarida 10 gacha bo'lgan raqamlarning 3 tasigina (I, V va X) 1 tadan, qolgan 7 tasi (II, III, IV, VI, VII, VIII, IX) 2 tadan 4 tagacha belgi bilan yoziladi. "88" sonini ifodalash uchun-ku 8 ta belgi ("LXXXVIII") – lozim. Shularni hisobga olib, biz boblarni arab raqamlari bilan belgilashni ma'qul ko'rdik.

Dostonning kelajakdagi nashrlari bo'yicha tavsiyalar. Bizda "Saddi Iskandariy" nashrida yana bir necha yangilikni amalga oshirish istagi bor edi. Ammo nashriyot mutaxassislari bunga ko'nmadi. Chunki ko'p yillardan buyon amalda bo'lgan imlo qoidalari – bor-da. Biz istagan yangiliklarni amalga oshirish uchun avval o'sha qoidalarini o'zgartirishga erishish talab etiladi. Ungacha esa yopiq qozon yopiqligicha turgani ma'qul ko'rildi.

Biroq ilm maqsadi uchun va kelajakka umid bilan ularni bu yerda bayon etib o'tishni ma'qul topdik:

1. Til qoidasiga ko'ra, atoqli ot sifatga aylansa, u kichik harf bilan yoziladi. Masalan, "Navoiy" – atoqli ot, "navoiychasiga", "navoiyshunoslik", "navoiyona" – sifat. Xuddi shuningdek. "Iskandar" – atoqli ot, "iskandariy" – sifat. Shu ma'noda doston nomi 1929 yildan, ya'ni o'zbek tilida arab yozuvidan voz kechilib, lotin yozuvi asosidagi birinchi alifboga o'tilganidan buyon "Saddi Iskandariy" tarzida xato yozilib kelyapti, Aslida, "Saddi iskandariy" bo'lishi – kerak. Agar "Saddi Iskandar" bo'lsa edi, "Iskandar" katta yozilar edi¹⁴. Buni to'g'ri tushunib olish uchun "Navoiy ifodasi" va "navoiyona ifoda" birikmalarini ko'z oldimizga keltirishimiz – lozim.

Dostonning "MAT"dagi nashrida sifat ma'nosida kelgan "iskandariy" so'zi "Xurshidi iskandariy" so'z birikmasi tarkibida, til qoidasiga mos ravishda, kichik harf bilan:

*Chu Xurshidi iskandariy ochti chehr,
Skandardek ofoq uza soldi mehr (48-bobdan).*

Bu – juda to'g'ri. Lekin nega endi "Saddi iskandariy" birikmasida u katta harf bilan yozilishi – kerak?

Dostonning oxirgi, ya'ni 88-bobida kelgan mana bu ikki baytning birinchisida "Skandar" so'zi katta, ikkinchisida esa "iskandariy" so'zi kichik harf bilan yoziladi:

*Skandarga til tortib ozar kibi,
Dedim oni "Saddi Skandar" kibi.*

¹⁴Quyidagi baytda shunday qilindi:

*Yasab xandaqu hisn Xaybar kibi,
Ne Xaybarki, saddi Skandar kibi (27-bobdan).*

*Tanosub bila aql nomovari,
Dedi otini "Saddi iskandariy".*

Ammo toki ilmda bu to'la isbotlanib, qoidaga kiritilmaguncha biz eski an'anaga asoslangan holda asar nomini *"Saddi Iskandariy"* tarzida qoldirishga majbur bo'ldik.

2. Hozirgi paytga kelib fors-tojik tilidagi *"ki"* o'zbek tiliga faqat qo'shimcha bo'lib qolgan va uni hozirgi tilimizda faqat biror so'zga qo'shib ishlatamiz. Holbuki, tojik tilida *"ki"* – alohida mustaqil so'z. U xuddi rus tilidagi *"который"* (*"которая"*, *"которое"*) so'zining o'zginasi kabi vazifada keladi va ishlatilganda, albatta, oldidan vergul bilan ajratiladi. Navoiy zamonidagi o'zbek tilida ham u xuddi shunday tarzda qo'llangan. Shuning uchun ham *"Saddi Iskandariy"*dagi ko'p-ko'p satrlar aynan shu so'z bilan boshlanaveradi. Holbuki, hozirgi o'zbek tilida *"ki"* bilan misra boshlab bo'lmaydi. Chunki bugungi tilimizda u o'zidan oldingi so'zga qo'shib ketgan-da. Bundan tashqari, Navoiy ko'p o'rinlarda *"chun, ki"* tarzida ishlatadi. Masalan: *"Chun, ki u keldi"*, – deyilsa, Navoiy asarlarining shu paytgacha bo'lgan nashrlaridagi kabi: *"Chunki u keldi"*, – deb yozsak, bugungi o'quvchi buni, albatta: *"Sababi – u keldi"*, – deb tushunadi. Holbuki, bu yerda: *"U kelgan paytda"*, *"U kelishi bilan"*, *"U kelgan zahoti"*, – degan mazmun ko'zda tutilgan. Shuning uchun rus tiliga buni: *"Потому что он прииёл"*, – deb emas: *"Тогда, когда он прииёл"*, – deb o'girishga to'g'ri keladi. Shu sababga ko'ra, dostonidagi barcha *"ki"* va uning boshqa bir shakli bo'lgan *"kim"*lar oldidan vergul qo'yib, ularni ajratish – lozim. Shu tariqa, Navoiy tilining bugungi tilimizdan farqli ko'p-ko'p taraflarini saqlab kelayotganimiz singari, buni ham aks ettirgan bo'lamiz.

Masalan:

*Vale chun, ki Xurshiding etti zuhur,
Kavokib sipohin nihon qildi nur (3-bobdan), –*

baytida *"ki"*ni *"chun"*ga ulab yozsak, bugungi o'quvchi, shubhasiz, bundan: *"Lekin Quyoshing ko'ringani sababli nur yulduzlar lashkarini yashirdi"*, – degan mazmunni anglaydi. Holbuki, bu yerda: *"Lekin Quyoshing ko'ringani zahoti nur yulduzlar lashkarini yashirdi"*, – degan mazmun ifodalangan.

3. Tilimizdagi *"va"* bog'lovchisi bizga arabchadan o'tgan. Bog'lovchimi, demak, u ikki narsani – so'z, so'z birikmasi yoki gapni bir-biriga bog'laydi. Shunday ekan, hech qachon gap *"va"* bilan boshlanmaydi. Rus tilidagi *"и"*, bizdagi *"va"* bog'lovchisi vazifasini bajarishdan tashqari, bizdagi *"ham"* o'rnida ham keladi. Shuning uchun bu tilda *"и"* bilan gap boshlash – mumkin, biz uni *"ham"* deb tarjima qilaveramiz. Ruschani ta'sirida hozirgi tilimizda ayrimlar, o'zbek tili tug'ma tabiatini qo'pol ravishda buzgan holda, *"va"* bilan gap boshlaydi. Navoiyning nasriy va nazmiy matnlari nashrida *"va"* oldidan vergul qo'yish yoki nuqta qo'yib, yangi jumlani *"va"* bilan boshlash kabi qo'pol xato ko'p uchraydi. Xoh nasriy, xoh nazmiy matn bo'lsin, bu doston nashrining hech yerida *"va"*dan oldin vergul yo nuqta qo'ymaslik – kerak. Shuningdek, Navoiy asarlari, jumladan, *"Saddi Iskandariy"*da, aslida, bir ma'noga ega *"va lekin"*, *"va lek"* hamda *"va le"* shakllari juda ko'p

uchraydi. Biroq nashrlarda oldingi ikki variantda “va” bog‘lovchisi “*lekin*” yoki “*lek*”dan ajratib, “*va le*” kelganda esa, negadir, bu ikkalasini “*vale*” tarzida qo‘shib yozish odat tusiga kirgan. Biz, *bu uch variant uchun ham bir xil qat’iyatga amal qilib, hammasida “va”ni ajratib yozish lozim*, deb hisoblaymiz.

Tabiiyki, bular – kelajakda amalga oshirilish mumkin bo‘lgan takliflar. Ammo bu yerda alohida ta’kidlanayotganiga sabab – shuki, muhtaram o‘quvchilarimiz bu doston mutolaasi jarayonida shularni ham nazarda tutsalar, foydadan xoli bo‘lmaydi.